



SAJ': MIRROR OF MEDIEVAL ARABIC PROSE AND ITS REFLECTION IN “MAKAMOT AZ-ZAMAKHSHARI”

Sanjar Dusmatov

senior lecturer

*International Islamic Academy of Uzbekistan
Uzbekistan, Tashkent*

ABOUT ARTICLE

Key words: Arabic literature, saj, rhymed prose, maqama, Mahmud Zamakhshari.

Received: 26.12.24

Accepted: 28.12.24

Published: 30.12.24

Abstract: The article presents information about rhymed prose - sajj, which was formed in the Middle Ages in Arabic literature and entered the category of artistic arts, about the formation of this art and its types. And also analyses the work ‘Makamot al-Zamakhshari’ written by the great scholar from Khorezm Abul Qasim Mahmud Zamakhshari, what kinds of sajj are found in the work.

SAJ': O'RTA ASR ARAB NASRINING KO'ZGUSI VA UNING “MAKAMOT AZ-ZAMAXSHARIY”DA AKS ETISHI

Sanjar Do'smatov

katta o'qituvchi

*O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi
O'zbekiston, Toshkent*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: arab adabiyoti, saj', qofiyali nasr, maqoma, Mahmud Zamaxshariy.

Annotatsiya: Maqolada o'rta asrlarda arab adabiyotida shakllangan va badiiy san`atlar qatotiga kiruvchi saj`san`ati, bu san`atning shakllanishi, uning turlari haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga xorazmlik buyuk alloma Abul Qosim Mahmud Zamaxshariyning qalamiga mansub bo'lgan “Maqomot az-Zamaxshariy” asarida saj'ning ifodalanishi, sajnint qaysi turi asarda uchrashi tahlil doirasiga olingan.

**САДЖ': ЗЕРКАЛО СРЕДНЕВЕКОВОЙ АРАБСКОЙ ПРОЗЫ И ЕЕ ОТРАЖЕНИЕ В
“МАКАМОТ АЗ-ЗАМАХШАРИ”**

Санжар Дусматов

старший преподаватель

Международная исламская академия Узбекистана

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабская литература, садж, рифмованная проза, статус, Махмуд Замахшари.

Аннотация: В статье представлены сведения о рифмованной прозе – сажь, сформировавшемся в средние века в арабской литературе и вошедшем в категорию художественных искусств, о формировании этого искусства и о его видах. А также анализируется произведении «Макамот аз-Замахшари», написанный великим ученым из Хорезма Абул Касимом Махмудом Замахшари, какие виды саджа встречаются в произведении.

KIRISH

Qadim zamonlardan buyon arablar yuksak so‘z san’ati bilan faxrlanib keladilar. Arab adabiyotida so‘z san’atiga katta e’tibor beririb, badiiy ifoda uslubi esa asrlar davomida sayqallanib, jumlalar mutavozin shaklda tuzilib, turli xil xat va tovush bezaklari bilan boyitilib boriladi.

X asrning oxiriga kelib Badi’ az-Zamon al-Xamadoniy hozirda maqomalar deb tanilgan badiiy hikoyalar to‘plamini qofiyali nasrda yaratdi va bu bilan u bu yozuv uslubini badiiy adabiyot darajasiga ko‘tarib, haqli ravishda yangi adabiy janr asoschisi deb e’tirof etildi. Al-Xamadoniydan so‘ng al-Haririy o‘zining maqomalarini qofiyali nasrda yaratdi.

ASOSIY QISM

Qofiyali nasr al-Xamadoniy va al-Haririy maqomalari tufayli badiiy so‘z san’atidagi asosiy shakllardan biriga aylandi.

Buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariy arab tili lug‘at boyligidan keng foydalanib, so‘z o‘yini va arab yozushi xususiyatlarini mohirona qo‘llagan holda o‘zining “Maqomot az-Zamaxshariy” asarini avvalgi mualliflar kabi qofiyali nasrda - saj’da yaratdi.

Qofiyali nasr yoki saj’ sharq badiiy adabiyotining o‘ziga xos uslublaridan biridir. U maqol va matallarda, ko‘plab mashhur arab notiqlari va adiblari so‘zlarida keng ishlatilgan.

Qofiyali nasr - saj’ (harfan g‘u g‘ulash, ququlash) - o‘zining bir xilligi va bir ohangliligi yoki kaptarning yengil ququlashiga ko‘plab o‘xshab ketishi tufayli shunday atalgan bu uslub nasr uchun muayan darajada sun’iydir. So‘z talaffuzi va ma’nosini birlashtiruvchi nutqning bunday tashkil etilishiga arab tili o‘zining tuzilishiga ko‘ra, bir tomondan asosiy so‘z turkumlari o‘rtasidagi deyarli matematik aniq o‘zaro munosabatlar, boshqa tomondan esa arabcha so‘zning bir o‘zagidan

yasaladigan ko‘plab hosilalar o‘rtasida tabiiy holda sodir bo‘ladigan hamohanglik tufayli ham ayniqsa moyildir.

Arabcha saj’ so‘zining leksik ma’nosi sayroqi qushlar - musicha, bulbul, to‘ti, kaptarlarning bir ohangni qayta-qayta takrorlab, turli yo‘sinda o‘zgartirayotgan tovushlarining jilolanishini anglatadi.

Arab filologiyasida “saj” istilohi nasriy nutqning bo‘laklarga bo‘lingan ularning oxiriga o‘zaro qofiyalanuvchi so‘zlar qo‘yiladigan turini ifodalaydi. Shu boisdan saj’ni “qofiyalangan nasr” deb atash qabul qilingan.

“Saj” arabcha istilohining negizi islomgacha va yozuv paydo bo‘lgan davrga borib taqaladi va ehtimol islam paydo bo‘lishidan ancha ilgari mavjud bo‘lgandir. Arab-musulmon an’anasida “qofiyalangan, biroq vazn jihatdan tartibga solinmagan nutq” degan tushunchani ifodalaydigan bu istiloh arablardagi ritmlashtirilgan nutqning O‘ta qadimiylarini ham, tuzilishiga ko‘ra ulardan ancha farq qiluvchi X-XII asr yozma qofiyali nasrining namunalari, shu jumladan birinchi o‘rinda maqomalarini o‘z ichiga oladi.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, “saj” istilohini “qofiyali nasr” yoki “qofiyalangan nasr” deb tarjima qilish arablardagi tasavvurdan bir muncha farq qiladi. Ularning tasavvuriga ko‘ra, badiiy nutq ikki qism - nazm va nasrga emas, balki uch qism - she’r (شعر), nasr (نثر) va saj’ (سجع) larga bo‘linadi.

D.V.Frolov klassik arab she’riyatining shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan maqolasida saj’ni qadimiylar hali arabcha she’rning rivojlangan shakllari mavjud bo‘lmagan paytdagi sodda, jo‘n, she’r deb qarash lozim degan fikrni ilgari suradi [1, 243-268].

Saj’ paydo bo‘lishi, shakllanishi muammosi olimlar tomonidan u yoki bu darajada o‘rganilgan. I.Yu.Krachkovskiy, A.Ye.Krimskiy, B.Ya.Shidfar, I.M.Filshtinskiy, shuningdek, I.Goldsiyer, X.A.R. Gibb va boshqalar nazm vujudga kelishi tarixini aynan saj’ bilan asosli ravishda bog‘laydilar.

I.Goldsiyer saj’ni eng qadimiylar she’riy shakli deb e’tirof etadi [2, 12]. A.Ye.Krimskiy arablardarda eng oddiy she’r shakli saj’ dan soddagina vazn - rajaz kelib chiqqan deb ta’kidlaydi [2, 17].

Islomgacha bo‘lgan davr arab adabiyoti asosan nazmiy shaklda bo‘lsa-da, B.Ya.Shidfarning ta’kidlashicha, saj’-arablarda islomgacha bo‘lgan davrdagi duolarda bitilgan badiiy so‘z san’atini tashkil etishning eng qadimgi shakllaridan biridir [3, 89].

O‘rta asr arab olimi-adibi al-Johizning fikricha, saj’ning afzalligi ikki tomonlama bo‘lib, u ham tinglash uchun yoqimli, ham oson eslab qolinadi [4, 112].

Ehtimol, shuning uchun ham qadimiylar davrda saj’ folbinlar, bashoratchilar, kohinlar so‘zlarida, rasmiy nutqlarda, adabiy musobaqa va mushoiralarda, bu ijodiyot turlarining har biri

o‘z xususiyatiga ega bo‘lsa-da, ularni stilistik va emosional bezash uchun ishlatilgan [4, 13]. Saj’ shaklining ko‘pxudolilik davrida nima mumkinu nima mumkin emasligini belgilovchi reglamentatsiyalarda keng qo‘llanilgani tufayli ham u arablar ongida islomgacha bo‘lgan davr bilan bog‘liq bo‘lib, qoldi va islom vujudga kelishining dastlabki bosqichlarida taqiqlab qo‘yildi.

Biroq Qur’onda qofiyali nasr keng qo‘llanilgan. Ba’zi suralar to‘liq, ba’zilari esa qisman qofiyali nasrda tuzilgan, lekin qofiyali nasr ishtirok etmagan birorta ham sura yo‘q. Muhammad payg‘ambar kohinlar nutqining shaklini, ya’ni saj’ni emas, balki mazmunini inkor etgan fikrlar ham mayjud [5].

Islom nufuzining o‘sishi va uning tarqalishi bilan saj’ni taqiqlashga o‘rin qolmadidi va saj’ shakli dastlabki xalifalar huzurida musulmon notiqlari tomonidan so‘zlangan nutqlarda ularning hech qanday e’tiroziga uchramay qo‘llana boshlandi [4, 114].

Shunday qilib, islom yangi paydo bo‘layotgan paytlarda epigrammalarda, otalarcha maslahatlar kabi dabdabali nutqlarda, diniy duolarda, ibodatlarda, shahzodalar va hokimlar vafotlari munosabatlari bilan so‘zlanadigan marsiyalarda saj’ namunalaridan misollar keltiradi [4, 30].

Hijriy solnomaning birinchi asridayoq saj’ u yoki bu muallif uslubidagi yuksaklik belgisi deb qaraladigan bo‘ldi [6, 73].

Shunday qilib, saj’ – qofiyali nasr arablarda badiiy so‘z san’atining eng qadimiy shakllaridan biridir. Qofiyali nasr shakllanishida Qur’on arab adabiyoti yodgorligi sifatida muhim o‘rin tutdi, u “qofiyali nasrni” muayyan darajada “muqaddaslashtirdi” [7, 187].

Qofiyali nasr hech qachon butun o‘rtasralar davomida badiiy so‘z san’ati sifatida o‘zining qadr-qimmatini yo‘qotmagan. Ibn al—Amid (920-997), Sohib ibn Abbod (938-995), Badiuz-Zamon al-Hamadoniy (968-1007), al-Hariri (!054-1122), az-Zamaxshariy (1075-1144) kabi saj’ san’atining yorqin vakillari mashhur bo‘lgan.

Badiiy so‘z san’atining mashhur bilimdoni Atoulloh Husayniy o‘zining “Badoye’ as-Sanoyi” asarida az-Zamaxshariyning bu sohadagi mahorati haqida ma’lumot beradi [8, 134].

Yuqorida aytganimizdek, saj’ bu “oliy” darajadagi bir badiiy so‘z san’atidir. Qofiyali nasrda, ya’ni saj’da ikkita, uchta, gohida to‘rtta jumla bir-biriga qofiyalanishi mumkin. Bunga Mahmud az-Zamaxshariyning “Maqomot az-Zamaxshariy” asaridan ham misol keltirish mumkin:

يَا أَبَا الْقَاسِمِ افْلَاكَ مَسْخَرَةٍ وَ كُواكِبَ مَسِيرَةٍ تَطْلُعُ حِينَا وَ حِينَا تَغْرِبُ وَ يَنْأَى بَعْضُهَا عَنْ بَعْضٍ وَ يَقْرَبُ

“Ey Abu-l-Qosim, falak yulduzlarni harakatga keltiradi, ular gohida so‘nadilar, gohida esa chaqnaydilar. ular bir-birlaridan uzoqlashadilar, ba’zida esa bir-birlariga yaqinlashadilar” [9, 104].

Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, ikki juft so‘z bir-biri bilan qofiyalangan bolib, ularning birinchisi مسخرة va مسيرة so‘zlaridir. Ikkinci juft esa تغرب va يقرب so‘zlaridir.

Uch marta qofiyalanishga esa quyidagi misolni keltirish mumkin:

يا ابا القاسم العمر قصير و الى الله مصير فما هذا التقصير

“Ey Abu-l-Qosim, umr qisqadir va u Allohga tegishlidir, shunday ekan bunday qisqartirishning nima keragi bor”[9, 15].

Bu yerda uchta jumla bir-biri bilan qofiyalanmoqda. Bunday qofiyalanish juda ham kam uchraydi. Bu jumlalarda مصیر قصير va تقصير so'zleri bir-biri bilan qofiyadoshdir.

Saj’ning yana shunday ko‘rinishi ham borki, unda to‘rt jumla bir-biri bilan qofiyalangan bo‘lib, uning birinchi jumlesi uchinchi jumla bilan, ikkinchi jumla esa to‘rtinchi jumla bilan qofiyadosh.

يا ابا القاسم ان خصال الخير كتفاح لبنان

كيف ما قلبتها دعوك الى نفسها

و ان خصال السوء حسسك السعدان

انى وجهتها نهاتك عن مسها

“Ey Abu-l-Qosim, yaxshilik xususiyati shundaki, u Lubnon olmasiga o‘xshaydi. Uni qayerga tashlamagin, o‘ziga seni tortadi. Yomonlik xususiyati Sa’donning tikanli o‘tiga o‘xshaydi. Uni qayerga tashlamagin, unga tegishing bilan senga ozor yetkazadi” [9, 11].

Bu yerda "لبنان" "سعدان" "نفسها" "مسها" "so‘zi bilan, "so‘zi esa" "so‘zi bilan qofiyadosh.

Saj’ haqida nazariy fikrlar ko‘pgina asarlarda keltirilgan. Ba’zi bir ixtiqlarini hisobga olmaganda, mualliflarning saj’ haqidagi fikrlari bir xildir. Bu ixtiqlar unchalik ahamiyatga ega emas. Ko‘pgina olimlar-Muhammad bin Umar ar-Raduyoniy, Roziy, Rashid Vatvot, Tabriziy, Nizomuddin Ahmad Siddiqiy, Mirshamsiddin Dehlaviy Sulaymonbek, Abdurahmon Surayyo, Ataulloh Husayniy saj’ni uch turga bo‘ladilar. Amir Xisrav Dehlaviy, Husayn Voiz Koshifiy esa saj’ni to‘rt turga bo‘ladilar.

Mahmud az-Zamaxshariyning “Maqomot az-Zamaxshariy” asarini tahlil qilib, biz ham saj’ni uch turga bo‘lishimiz mumkin. Ular quyidagilar:

1. Saj’ mutavoziy. Saj’ning bu turida so‘zlar nafaqat qofiyadosh bo‘lganligi, balki morfologik vaznining mos kelishi bilan ham ajralib turadi. Masalan:

يا ابا القاسم نفسك الى الاولى نزاه فاغزها بسرعة من الصبر غزاه لعلك تقل شوكتها و تكسرها يجبرها على الصلاح و تكسرها

“Ey Abu-l-Qosim, sening shahvoniy nafsing o‘zining birinchi ko‘rinishida juda ham kuchlidir. Sen ularga sabr ber, balki shu bilan sen ularni kuchsizlantirib ularning xohishini sindirarsan. Balkim shu bilan ularni solih yo‘lga yurishga majbur qilarsan” [9, 110].

Bu misolda “غزاه” “نزاه” so‘zi bilan va “تكسرها” “تقرضاها” so‘zi bilan qofiyadosh bo‘libgina qolmay, ular morfologik jihatdan ham bir qolipda yasalgan.

“Maqomot az-Zamaxshariy”da biz saj’ mutavoziyini murakkablashgan shaklda ham ko‘rishimiz mumkin. Qanchalik qofiyadosh so‘zlar ko‘p bo‘lsa, shunchalik saj’ mutavoziy

mukammal va chiroyli bo‘ladi. Bu esa muallifdan yuksak mahoratni talab qiladi. “Maqomat az-Zamaxshariy” da biz saj’ mutavoziyning huddi shunday variantini ko‘rishimiz mumkin. Quyidagi misolda gapning so‘nggidagi ikkita so‘z keyingi gapning oxiridagi ikkita so‘z bilan qofiyalanadi.

وامش في جادة الهدىين الداللين
وخالف عن بنيات طرق العاديين الضالين

“Hidoyatga boshlovchilar yo‘lidan borgil, zalolatga ketganlar yo‘lini tark etgil” [9, 13-14].

Bu yerda biz ikki tomonlama qofiyalanishni ko‘rishimiz mumkin. Gapning oxiridagi ikkita so‘z nafaqat keyingi jumlaning oxiridagi ikkita so‘z bilan, balki bir-biri bilan qofiyalanib, ichki qofiyani ham tashkil qilyaptilar.

Navbatdagi misolda biz saj’ning juda go‘zal variantini ko‘rishimiz mumkin.

وأكرم نجيك هذا فإنه كريم يستوجب غاية لإكرام. وعظيم يستدعي قصارى الإعظام.

“Hurmat qil! U seni qo‘tqaradi. Chunki uning o‘zi oliyanob bo‘lib, katta hurmatga loyiqidir. U juda buyuk va ulug‘lashni talab qiladi” [9, 160].

Mazkur misol Zamaxshariyning o‘ta mahoratli va tilni juda mukammal bilganligidan dalolat beradi. Chunki saj’ning bunday ko‘rinishlari badiiy nasrni boyitdi. Bu yerda saj’ mutavoziyining shunday xususiyatiki, unda birinchi fosilada kelgan so‘zlarning taxminan uchdan bir qismi keyingi fosilaning shuncha so‘zleri bilan qofiyalanmoqda. Yana shuningdek, birinchi gapdagi so‘zlarning yarmi ikkinchi gapdagi so‘zlarning yarmi bilan bir o‘zakdan yasalgan so‘zlardir.

Saj’ning yana shunday ko‘rinishi borki, unda birinchi gapdagi barcha so‘zlar ikkinchi gapdagi barcha so‘zlar bilan qofiyalanadi. Masalan:

حسابها قبل أن تحاسب

وعاتبها قبل أن تُعذب

“Hisob-kitob qilinmasingdan oldin sen uni hisob-kitob qil!” [9, 13].

Yuqoridagi misollarning go‘zalligi shundaki, xar bir gapning boshidagi fe’l buyruq maylida, oxiridagi so‘z esa shu fe’lning majhul darajadagi shaklidir.

Saj’ mutavoziyining bunday murakkab shakllari “Maqomot az-Zamaxshariy” asarining taxminan 25 % ni tashkil etadi. Ba’zi olimlar, xususan, Atoulloh Husayniy, saj’ mutavoziyining bunday murakkab ko‘rinishini “tarsi”” [8, 67] deb ataydilar. Bizningcha ularni saj’ tarsi’ deb atash to‘g‘riroq bo‘lardi.

2. Saj’ mutarraf. Saj’ning bu turida so‘zlar vaznda mos kelmaydi, ular faqat qofiyadosh bo‘ladilar. Masalan:

ويتدبرون تعبية الجهاز وتهيئة الزاد

حتى إذا نهضوا نهضوا ملأ المزاود والمزاد

“Ular yo‘lga chiqqanlarida zahiralari va yeguliklari yetarli holda bo‘lishi uchun jihozlar va ozuqalarni tayyorlash haqida o‘ylaydilar.” [9, 23].

Bu o‘rinda “زاد” so‘zi “مزاد” so‘zining bir bo‘lagini tashkil etgandek.

وأخلص اليقين وخلص المتنين

“Dinga ixlos qilib muttaqiynlarga muxlis bo‘l!” [9, 13].

Bu ham saj’ mutarrafga misol bo‘lishi mumkin. Lekin bu misol oldingisiga qaraganda yanada go‘zalroqdir. Chunki birinchidan qofiyasiz so‘zning o‘zi yo‘q, barcha so‘zlar qofiyadoshdir. Ikkinchidan, jumlalar ikkita so‘zdan tashkil topgan. Bu esa saj’ning sifat ko‘rsatgichlaridan biridir [8, 67].

Keyingi misolda saj’ mutarraf o‘ziga xos ko‘rinishga ega. U tardi aksni eslatadi. Masalan:

يَا أَبَا الْفَالِسِمِ تَبَّنَى إِلَى اللَّهِ وَخَلَ ذِكْرُ الْخَصْمِ الْمُبْتَلِ.

ورتل القرآن وعد عن صفة الشفر المرتل.

“Ey Abu-l-Qosim, o‘zingni Allohga bahshida qil, Qur’on o‘qi, ayollardan voz kech!” [9, 46].

Bu yerda “ ” مرتل “ ” تبَّنَى “ ” مبتَل “ ” saj’ mutarraf. Shuningdek “ ” رتل “ ” so‘zi “ ” bilan ham qofiyadosh.

3. Saj’ mutavozin. Saj’ning bu turida qofiyadosh so‘zlar faqat vazn jihatidangina bir-birga mos keladi. Masalan: ” عالم ” عامل ” . Saj’ning bu turi “Maqomot az-Zamaxshariy”da uchramaydi.

Jumla so‘zlarining miqdoriga kelsak, saj’ uch gruppaga bo‘linadi. Atoulloh Husayniyning fikricha: “Har bir jumlada so‘zlar soni ikkitadan oshmagan saj’ eng chiroyli saj’dir”. Masalan:

أجل مكتوب وأمل مكتوب

“O‘lim haqiqatdir, orzu-umidlar esa aldamchidir.” [9, 17].

XULOSA

Shunday qilib saj’ adibning mahoratini baholovchi kreteriy bo‘lib xizmat qilgan. “Maqomot az-Zamaxshariy”dagi misollardan ko‘rinib turibdiki, Mahmud az-Zamaxshariy bu badiiy uslubning sir – sinoatlarini chuqur egallagan. Xorazmdan chiqqan Mahmud az-Zamaxshariy O‘rta Osiyolik mualliflar ichida birinchilardan bo‘lib, arab badiiy nasri rivojiga hissa qo‘shgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Фролов Д. В. К вопросу о становлении и эволюции арабского стиха, в книге, Проблемы исторической поэтики литератур Востока. Москва, Наука, 1988.
2. Крымский А. Е. Арабская поэзия, Москва, 1904.
3. Шидфар Б. Я. Абу-л-Аля ал-Маарри, Москва, 1985.
4. Al-Johiz. Kitab al-bayan va-t-tabyin. Qohira, 1970, J.1.
5. Ahmad Ahmad Badaviy. Usas an-naqd al-arabiyy inda al-arab. Qohira, 1964.
6. Abul Faraj al-Isfاخони. Kitab al-ag‘aniy. J, 2.
7. Ибрагимов Н.И. Арабский народный роман, Москва, Наука, 1984.
8. Atoulloh Husayniy. Badoye`u-s-sanoye. Toshkent, 1981.
9. Mahmud Zamahshariy. Maqomot az-Zamaxshariy. Qohira, 1907.